

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARIDA MEDIA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

N.O.Saidova

FarDU, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ibroximova Zebiniso

FarDU Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

zebinisoabdurahmonova06@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20637912>

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida media savodxonlikni rivojlantirishning nazariy asoslari va pedagogik omillari tahlil qilinadi. Unda media savodxonlikni shakllantirishda individual yondashuv, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, multimedia texnologiyalarining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'рни, ularning didaktik imkoniyatlari hamda tarbiyachilarning ijodiy va konstruktiv faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida maktabgacha ta'lim tizimida media savodxonlikni oshirish tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, zamonaviy ta'lim muhitini yaratish va bolalarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omili ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: traektoriya, modellashtirish, kommunikatsiya, gipermedia, polifonik, interfaol, mediamatn, funksiya, pozitsiya, axborot, elektron, mediasavodxonlik, media ta'lim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziquvchan, ko'p savol beradigan va hamma narsani bilishni xohlaydigan bo'lishadi. Tarbiyachi-pedagog esa bolalarning son-sanoqsiz savollariga ularning yosh jihatlarini e'tiborga olgan holda javob berishi lozim. Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolada bilishga bo'lgan intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining media savodxonligini oshirishni samarali tashkil etish uchun biz bir qator pedagogik imkoniyatlardan foydalanishimiz mumkin. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, quyidagilarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi:

1. Media savodxonlikni shakllantirishning individual darajasi va tarbiyachilarning individual xususiyatlarini hisobga olish: malaka oshirish kurslarida o'qitishga individual yondashuvni amalga oshirish, jamoada qulay psixologik sharoitlarni yaratish, media savodxonlikni shakllantirish ustidan doimiy monitoringni amalga oshirish, tarbiyachilarni talabalik davrida qadriyatlar tizimi va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish darajasini oshirish, o'qish va kasbiy faoliyat jarayonida motivatsiya va faollikni tashkil etish.

2. Individual traektoriyani qurishda ifodalangan kasbiy faoliyatning xilma-xil turlarida (tahliliy, qidiruv, loyihalash, ijodiy modellashtirish) mustaqil ishlarni modellashtirish, har bir bosqichda rol funksiyalarini bajarish, multimedia ta'lim muhitini yaratish va uni yaratish vositalarini tanlash erkinligi, faol va interaktiv usullardan, axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish bo'yicha professional kompetensiyalarni shakllantirish.

3. Multimediaga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonini yaratish: har bir tarbiyalanuvchini ijodiy konstruktiv faoliyat jarayoniga jalb qilish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligini ta'minlash, ushbu jarayonda AKT, multimedia va gipermedia texnologiyalaridan foydalanish.

4. Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashda turli media san'at shakllari ustida ishlash: maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining media savodxonligini oshirishni samarali shakllantirish jarayonida psixologik qulay muhit yaratish, ularning hissiy holatini va media savodxonligini oshirish jarayonini doimiy monitoring qilish orqali nazarda tutiladi.

Multimedia texnologiyalari – bu barcha turdagi axborot – matn, grafik, audio, video, animatsiya, chizmalar, jadvallardan foydalanadigan va ko'paytiruvchi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining integratsiyasidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun tayyor multimedia mahsulotlarini idrok etishni kuchaytirish va ularning mazmunini moslashtirish, o'quv xarakteridagi ma'lumotlarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish bugungi kunning muhim talablaridan biri.

Tarbiyachining kasbiy talablarini hisobga olgan holda o'quv muhiti, rolli kasbiy faoliyat shakllari multimedia ta'lim muhitini yaratish bosqichlariga va ommaviy axborot vositalarining turlariga va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining ijodiy vakolatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilishi, ularning pedagogik jarayonga tadbiq etilishi, maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot sohasini rivojlantirish, ta'limning zamonaviy paradigmasiga o'tishni talab etadi. Belgilangan talablarga muvofiq, tarbiyachining roli, ta'lim-tarbiya jarayonidagi funksiyalari qay darajada o'zgarishi borasidagi masala ham tobora dolzarb bo'lmoqda. Mazkur masalaga javoblar fikrlarning keng qamrovini keltirib chiqarib, aksariyat hollarda ular bir-biriga qarama-qarshi bo'lmoqda. Zamonaviy ommaviy axborot va kommunikatsiya o'zgarib, tarbiyachiga bor-yo'g'i kuzatuvchi-maslahatchi rolini belgilab berishi haqidagi fikrlar ham mavjud. Boshqacha nuqtai nazar namoyondalari, bugungi kunda mavjud bo'lgan media turlaridan hech biri yaqin kelajakda tarbiyachi-pedagog o'rnini bosa olmasligi, faqatgina yordamchi, ta'lim imkoniyatlarini kengaytiruvchi sifatida faoliyat yuritishi haqidagi fikrlarni bildirishmoqda.

Tarbiyachi va bolalar media madaniyatni chuqur bilishi shart emas, uning texnikasi bo'yicha daxo bo'lishi ham kerak emas, ammo u tarmoq odob-axloqiga tegishli masalalar borasida o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda, maslahat berishga qodir bo'lishi shart. Tarbiyachi media savodxonligi tarbiyalanuvchilar fikrining to'g'riligini yoki ularning media borasidagi didini muhokama qilmaydi, balki ulardan munozaralar uchun tayanch nuqta sifatida foydalanadi. Media savodxonligi tarbiyachisi yosh bolalarning kichik bo'lsada, tajribasini qadrlashi kerak; bolalarni medianing zararli ta'siridan o'zlarini himoya qilishni o'rganishi uchun etarli hajmdagi axborot va ko'nikmalarni taqdim qiladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida elektron media qo'llanilishi uchun tarbiyachi-pedagog tayyorgarligi tuzilmasidagi motivatsion komponent bilan bir qatorda, quyidagilarni ham ajratib olish mumkin: maqsadli (elektron media vositalarini qo'llash imkoniyatlari va maqsadlari haqidagi aniq tushuncha); axborot (zamonaviy media vositalari, ularga muvofiq mahsulot va resurslar, didaktik va tarbiya imkoniyatlari, psixologik-pedagogik imkoniyatlar va qo'llash usullarini bilish); faoliyat (turli elektron vositalar bilan ishlay bilish va ta'lim-tarbiya sohasi uchun zarur bo'lgan shaxsiy media vositalarini yaratish).

Yangi media vositalar bilimni tashkillashtirish va boshqarish uchun yangicha imkoniyatlar ochib berdi. Ta'lim axborotini yetkazish odatiy vositalari tobora tanqid ostiga olinmoqda: deklarativ (deklaratsiya – lotincha declaratio – ma'lum qilaman, e'lon qilaman degan ma'noni bildiradi) bilim

endilikda talab etilmaydi; ta'lim-tarbiya berish jarayoni endilikda boshqacha yondashuvni talab etmoqda. An'anaviy bilimlar tarbiyachilar bolalarga yetkazishi lozim bo'lgan tuzilmaviy mazmunga ega. Axborot jamiyatida ta'lim-tarbiya olishda, endilikda bolalarning o'zi qatnashishi talab etiladi, demakki yangilanib borayotgan maktabgacha ta'lim tizimida o'zgarishlar zarur bo'lmoqda: murakkab nizomlardan chetlashish, ta'lim-tarbiya jarayoni markaziga tarbiyalanuvchining o'zini va uning imkoniyatlarini qoldiradi. Shu sababdan ham tarbiyachilarning media savodxonligini oshirish va buning natijasida bugungi maktabgacha ta'lim-tarbiya muhitidagi tarbiyalanuvchilarning media bilimlarga ega bo'lishini ta'minlash dolzarb masala sanaladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarida media savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim va ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, media savodxonlikni shakllantirish ko'p omilli jarayon bo'lib, u tarbiyachilarning individual xususiyatlari, kasbiy kompetensiyalari, motivatsiyasi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Multimedia va zamonaviy media texnologiyalarining ta'lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalashuvi tarbiyachilarning nafaqat axborotni qabul qilish va uzatish, balki uni tahlil qilish, qayta ishlash va ijodiy yondashuv asosida qo'llash kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, media savodxonlikni rivojlantirishda interfaol metodlar, mustaqil faoliyatni tashkil etish, shuningdek, qulay psixologik-pedagogik muhitni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, zamonaviy texnologiyalar tarbiyachi faoliyatini to'liq almashtira olmaydi, balki uning kasbiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli, tarbiyachining roli axborotni yetkazuvchi emas, balki uni saralovchi, yo'naltiruvchi va bolalarda tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi subyekt sifatida yanada muhimlashadi.

Umuman olganda, maktabgacha ta'lim tizimida media savodxonlikni rivojlantirish tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishni, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda zamonaviy axborot makonida to'g'ri yo'naltirilgan, ongli va xavfsiz faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abduyev Sh., Tugalov R. Maktabgacha ta'lim muassasalarida zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asoslari va samaradorligi. –T.: TDPU, “Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar” xalqaro ilmiy konferensiya, 2018. – B. 23-24.
2. Абдулов Р.М.Использование интерактивных средств в процессе развития исследовательских умений учащихся при обучении физике. дисс.канд. пед. Наук. Екатеринбург. 2013. 120 с
3. Allambergenov A.J. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarida kasbiy-texnologik kompetentlikni rivojlantirish: p.f.b.f.d... (PhD) dissertatsiya. Nukus – 2020. – B. 85.
4. Астахова Е.В. Информационно-коммуникационные технологии: учебное пособие / Е.В.Астахова. – Барнаул: Изд-во Алт. гос. техн. ун-та им. И. И. Ползунова, 2010. – 82 с
5. Bazalgette C. Primary Media Education: A Curriculum. Statement London: BFI, 1989, 125 p.
6. Boqiyev R.R., Mamajonova M.E. Pedagogik dasturiy vositalar va matematik modellashtirish // Pedagogik mahorat. – Buxoro, 2003. - №2, - B. 73-77.

7. Долинер Л.И. Информационные и телекоммуникационные технологии в обучении: психолого-педагогические и методические аспекты: монография / Л.И.Долинер. – Екатеринбург: Рос. гос. проф.-пед. ун-т., 2003. – 344 с.